



**KENGASH YI‘G‘ILISHINING MAJLIS
BAYONIDAN KO‘CHIRMA**

Toshkent

№ 2026/04

2026 yil “ 12 ” mart

Yig‘ilish raisi:

O. Isakov (shaxsan)

Ishtirokchilar:

Kengash a‘zolari:

U. Muxtarov (shaxsan)
M. Atajanov (masofadan)
Y. Ayzup (shaxsan)
U. Ahmedov (shaxsan)
S. Jarbolova (shaxsan)
F. Tuinstra (shaxsan)
O. Ulyanova (shaxsan)
G. Chiladze (masofadan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Taklif qilinganlar:

Boshqaruv Raisi

A. Akbarjonov

Boshqaruv a‘zolari:

O. Ekler, U. Aminova

Bankning bosh ofisi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari

F. Abdurahmonov, Y. Vershilo, D. Sadirov.

Kengashning to‘qqiz nafar a‘zosidan sakkiztasi Zoom dasturi orqali onlayn yig‘ilishda ishtirok etdi va Kengash yig‘ilishi kворumi ta‘minlandi.

Kengash yig‘ilishining kun tartibi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (yirik aksiyador) 2026-yil 17-fevraldagi 08/29-3-3668-sonli xatini ko‘rib chiqish.

- Kuzatuv kengashi a‘zolari sonini 9 nafardan 11 nafarga ko‘paytirish maqsadida bank ustaviga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida.
- Kuzatuv kengashining yangi tarkibini ilovaga muvofiq saylash to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirishlar, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining (yirik aksiyador) talabi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi 74-sonli Farmoniga muvofiq ichki me‘yoriy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida («O‘zsanoatqurilishbank» ATB Ustavi, Kengash to‘g‘risidagi Nizomi va Boshqaruv to‘g‘risidagi Nizom).

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (yirik aksiyador) 2026-yil 17-fevraldagi 08/29-3-3668-sonli “Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida”gi xatini ko‘rib chiqish.

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining kun tartibi, yig‘ilish o‘tkazilish sanasi, vaqti va joyini tasdiqlash;
- Aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi, ovoz berish byulletenining shakli va matnini tasdiqlash;
- Aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar)ni tasdiqlash.

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (yirik aksiyador) 2026-yil 17-fevraldagi 08/29-3-3668-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosi Djarbolova Saida Sherizatovna vakolatlarini tugatish ma‘qullansin.

1.2. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylash uchun quyidagi yangi nomzodlar bo‘yicha takliflar ma‘qullansin:

- Ansel Metyu Jon – “Franklin Templeton Asset Management” XK MChJ vakili;
- Gans Kristof Mangold – mustaqil a‘zo;
- Ayupova Sayyora Yakupovna – mustaqil a‘zo.

1.3. Mazkur masalalar bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a‘zo, shu jumladan

“Ma‘qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ma‘qullansin hamda bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi tasdiqlash uchun kiritilsin.

2.1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ma‘qullansin hamda aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

2.2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ma‘qullansin hamda tasdiqlash uchun aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a‘zo, shu jumladan

“Ma‘qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

3. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2026-yil 8-aprel kuni soat 11:00 da Toshkent vaqti bilan o‘tkazilsin, aksiyadorlar va ularning vakillarini ro‘yxatdan o‘tkazish Toshkent vaqti bilan 10:00 dan 11:00 gacha <http://evote.uz> elektron ovoz berish xizmati orqali masofadan amalga oshirilsin.

3.1. Aksiyadorlarga navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuborish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 16-mart etib belgilansin.

3.2. Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 3-aprel etib belgilansin.

3.3. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibi tasdiqlansin:

1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

3. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

4. Bank Kuzatuv kengashining bir a‘zosining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

5. Bank Kuzatuv kengashiga yangi a‘zolari saylash.

3.4. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi xabarnoma matni tasdiqlansin.

3.5. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ovoz berish uchun byulleten shakli va matni tasdiqlansin.

3.6. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rishda aksiyadorlarga va davlat vakillariga taqdim etiladigan materiallar ro‘yxati va to‘plami tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a‘zo, shu jumladan

“Ma‘qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Kotib

D. Abduqodirov

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana: 2025 yil “16” mart.